



SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF SPEECH CULTURE IN LANGUAGE EDUCATION

S.B. Pulatova

Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
polatovasarvinoz@gmail.com

A.A. Atoev

Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
atoyevalisher56@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604946>

ARTICLE INFO

Received: 30th December 2024

Accepted: 05th January 2025

Online: 06th January 2025

KEYWORDS

language education,
integration, interdisciplinary
integration, interdisciplinary
communication, speech culture,
foreign language, comparative
linguistics.

ABSTRACT

The integration of subjects and fields in language education develops the ability to use the studied language in practice. In order to strengthen the practical aspect of grammar knowledge, texts on various topics are referred to. In this, the process of connection between language science and various disciplines and fields occurs. The article contains some recommendations for students and independent researchers studying foreign languages.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ФОРМИРОВАНИЮ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

С.Б. Пулатова

Академия МВД Республики Узбекистан
polatovasarvinoz@gmail.com

А.А.Атоев

Академия МВД Республики Узбекистан
atoyevalisher56@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604946>

ARTICLE INFO

Received: 30th December 2024

Accepted: 05th January 2025

Online: 06th January 2025

KEYWORDS

Языковое образование,
интеграция,
межпредметная
интеграция,
междисциплинарная
коммуникация, культура
речи, иностранный язык,
сравнительное языкознание.

ABSTRACT

Интеграция предметов и областей языкового образования развивает умение использовать изучаемый язык на практике. С целью закрепления практической стороны знания грамматики обращаются к текстам различной тематики. При этом происходит процесс связи науки о языке с различными дисциплинами и областями. Статья содержит некоторые рекомендации для студентов и независимых исследователей, изучающих иностранные языки.



TIL TA'LIMIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID MULOHAZALAR

S.B. Po'latova

PhD, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.

polatovasarvinoz@gmail.com

A.A. Atoev

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Katta o'qituvchi.

atoevalisher56@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604946>

ARTICLE INFO

Received: 30th December 2024

Accepted: 05th January 2025

Online: 06th January 2025

KEYWORDS

Til ta'limi, integratsiya, fanlar yoki sohalararo integratsiya, bo'limlararo aloqadorlik, nutq madaniyati, xorijiy til, qiyosiy tilshunoslik.

ABSTRACT

Til ta'limida fanlar, sohalararo integratsiyasiga amal qilish o'rganilayotgan tilning amalda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi. Grammatikaga oid bilimlarni amaliy jihatini mustahkamlash uchun turli mavzudagi matnlarga murojaat qilinadi. Bunda til fani hamda turli fanlar, sohalararo aloqadorlik jarayoni yuzaga keladi. Maqolada xorijiy tillarni o'rganayotgan o'quvchi va mustaqil izlanuvchilar uchun ba'zi tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Ta'limdagi integratsiya – bu o'quvchining shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantirish uchun ma'lum bir ta'lim tizimi doirasida tarkibning tarkibiy qismlari o'rtasida aloqalarni o'rnatish jarayonidir. Integratsiya (*lot.* *integratio* - tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish) 1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni bo'lib xorijiy tilni o'rganayotgan har bir o'rganuvchiga til o'rganish jarayonida asqotadi.¹ "Integratsiya" - ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir.

Bugungi kunda bizning ta'lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Integratsiya – "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi. Zamonaviy ta'limda fanlarni integratsiyalashtirish yangi pedagogik yechimlarni faol izlash, o'quvchilarga samarali va asosli ta'sir ko'rsatish uchun pedagogik xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlaridan biridir. Ta'limda fanlararo integratsiya izlanuvchilarning bilimlarni bir-biriga bog'langan, aloqador holda boshqa fan va sohalararni o'rganish barobarida umuminsoniy qadriyatlar majmuini egallashni ham ta'minlaydi.

O'quvchi o'quv materiallari tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ilmiy asosda atroflicha, chuqur tushunib oladilar. Ingliz tili (boshqa chet tillar)ni o'rganishda o'qitiladigan barcha mavzular turli fanlar, sohalar bilan bog'liq holda til hodisalarni o'rganishga asoslangan. Ya'ni turli mavzudagi matnlar tavsiya etiladi. Til o'rganish jarayonida til faniga aloqador bo'lmagan fan yoki sohalaraga oid (matnlardagi) ma'lumotlar ijtimoiy hayotda zarur

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. O'zME. T. 2007.2. 16-b.



bo'lgan tushunchalar bilimlar majmuidan iborat bo'lgani bois, fanlar yoki sohalararo integratsiya jarayoni yuzaga keladi.

Bilish tafakkur va til orqali amalga oshiriladi. Tafakkurning moddiylashuvi nutq vositasida amalga oshiriladi. Nutq vaziyati uchun mos til birliklarni (leksik, grammatik vositalarni) to'g'ri tanlay olish kerak. Til ta'limi oldida turgan murakkab talab – o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. Nutq madaniyati kundalik (erkin) muloqotni ham, turli vaziyatlarda qanday so'zlashish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Har bir dars nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun dars jarayonlarida (boshlashdan oldin) hikmatli so'zlar, maqollar, she'rlar (band, hattoki bir misra ham bo'lishi mumkin) yoki badiiy asarlardan gaplar, qisqa parchalar, o'rni bilan hajviya (Chunki kulgi ostiga olingan voqea-hodisalar zamirida ibrat turadi.) foydalanish o'quvchining til faniga oid bilimlarini mustahkamlashga, ta'lim bilan birga tarbiya olishga, asosiysi, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Grammatik bilimlar va til me'yorlarini yaxshi o'zlashtirish fikrni to'g'ri aniq, ravon ifodalash imkonini beradi va bu nutq madaniyati va uslubiyatning takomillashuviga asos bo'ladi.

Har bir kishining tarbiyasi, ma'naviyati, savodxonligi uning so'zi, nutqi bilan ham o'lchanadi. Nutq orqali insonning ichki dunyosi, odamgarchiligi, rostgo'yligi kabi fazilatlar, umuman olganda, madaniyati namoyon bo'ladi. Og'zaki va yozma nutq bir-biri bilan aloqdor bo'lsa-da, o'ziga xos tomonlari ham bor. Og'zaki nutq talaffuz qilinadi va eshitiladi. Bunda inson fikrini bayon etishda ohang, pauza va turli noverbal vositalardan foydalanadi. Bu vositalardan o'rni bilan to'g'ri foydalanish malakasi talabalarda shakllanishi kerak. Yozma nutqda savodxonlik talab etiladi. Kishi fikrlarini yozma bayon etganda ko'ruv va eshituv organlari orqali o'zgalarning axborotini qabul qilib, o'zining munosabatini ham bildiradi. Yozma nutqning afzalligi shundaki, ifodalanayotgan voqea-hodisa, tushuncha kabilarni so'z bilan bayon qilayotganda, agar biror so'z, ibora yoki qo'shimcha noto'g'ri qo'llanilgan bo'lsa, ularni boshqa ma'qul varianti bilan almashtirilishi mumkin. Ammo og'zaki nutqda bunday imkoniyat bo'lmaydi, shuning uchun aytiladigan fikrni har tomonlama o'ylab keyin bayon etish kerak. Ta'lim bosqichlarida mavzular oddiydan murakkabga tomon o'sib boradi. Masalan, o'quvchilar ingliz tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o'z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo'llay olish uchun o'quvchilarda yetarli ko'nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o'qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o'tadi. Yangi mavzu bayonidan so'ng o'qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'liga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyidagi materiallardan foydalanishimiz mumkin:²

² <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-va-adabiyot-darslarida-integrativ-yondashuvning-ahamiyati/viewer>



Today's grandparents are joining their grandchildren on social media, but the different generations' online habits couldn't be more different. In the UK the over-55s are joining Facebook in increasing numbers, meaning that they will soon be the site's second biggest user group, with 3.5 million users aged 55–64 and 2.9 million over-65s.

The Taj Mahal (pronounced /ˈtɑːdʒ məˈhɑːl/) is a famous mausoleum next to the river Yamuna in the Indian city of Agra. A mausoleum is a building where people bury the dead. The name Taj Mahal means 'the crown of palaces'.

Look to see if the story you are reading is on other news sites that you know and trust. If you do find it on many other sites, then it probably isn't fake (although there are some exceptions), as many big news organisations try to check their sources before they publish a story.

To'g'ri talaffuz – orfoepiyaga doir malakasini o'stirishda grammatikaning roli katta. Shuning uchun til o'rganish darslarida grammatik qoidalar nutq o'stirish bilan bog'lab o'rganiladi. Sintaksisga oid bilimlar o'rganish boshlanishi nutq o'stirish malakalarining rivojlanishi uchun asos vazifasini o'taydi. So'z birikmasi va gap ohangi, gapning tugallangan ohang bilan aytilishi, mantiqiy (logik) urg'u, ikkinchi darajali bo'laklarning o'zi birikayotgan bosh bo'laklar bilan birga aytilish ohangi, intonatsiya, pauzaga rioya qilib o'qishni o'rgatib borish kerak:

"There once was a poor shepherd boy who used to watch his flocks in the fields next to a dark forest near the foot of a mountain. One hot afternoon, he thought up a good plan to get some company for himself and also have a little fun. Raising his fist in the air, he ran down to the village shouting "Wolf, Wolf." As soon as they heard him, the villagers all rushed from their homes, full of concern for his safety, and two of his cousins even stayed with him for a short while"

Xulosa qilib aytganda, til o'rganish darslarida o'quvchi yoki talabalarga fonetik uslubiyat singdirib borilsa, og'zaki nutqdagi yoki matnlardagi so'z urg'usi, sintagma urg'usini, pauzani to'g'ri qo'yib o'qish uqish, anglashda samaradorlikni oshiradi. Darsda tavsiya etiladigan video, audiomatnlardan, ijtimoiy tarmoqlardan olinadigan axborot va boshqa matnlardan foydalanish til o'rganish bilan birga nutq madaniyati ko'nikmasini rivojlantirishga samarali ta'sir etadi. Matnlar mazmunidan kelib chiqqan holda fanlar, sohalararo integratsiya o'rganilayotgan til materiallarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

References:

1. Axmedxanova G. Ona tili va adabiyot darslarida integrativ yondashuvning ahamiyati. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022.
2. Muqimova S. Ona tili, adabiyot va boshqa fanlar integratsiyalashganda. Til va adabiyot ta'limi. T. 2020-yil. 9-son. ISSN 2010-5584.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. O'zME. T. 2007.2. 16-b.



4. Tairov Sh., Askarova B. Pedagogik integratsiya ta'limni integrallash toifasi sifatida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(6), June, 2023
5. Muqumova Surayyo. (2022). Traditions of uzbek mentality in artistic works and their interpretation as linguculturological objects. Open Access Repository, 9(04), 138–141. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NBY2P>.
6. Rahmonova U., (2022). Analysis of poetic devices. current research journal of philological sciences, 3(07), 20–24. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-07-05>
7. <https://learnenglish.britishcouncil.org/skills/reading/b2-reading>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-va-adabiyot-darslarida-integrativ-yondashuvning-ahamiyati/viewer>